XALQ DEPUTATLARI TERMIZ SHAHAR KENGASHINING QARORI

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 5-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-12-82, (+99876) 224-12-96

2022 - yil 5 - yanvar VI-42-1-8-121-K/22 Termiz shahar hokimligi

Termiz shahrining 2022-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq hamda Surxondaryo viloyati Moliya bosh boshqarmasining 2021-yil 30-dekabrdagi 22-04-10/6386-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Termiz shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 2021-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-742-son Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Termiz shahar mahalliy byudjetining 2022-yil uchun daromadlari 139 mlrd. 517,6 mln. so‘m, xarajatlari 148 mlrd. 048,1 mln. so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 8 mlrd. 530,5 mln. so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2022-yil uchun Termiz shaharni rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2023-2024-yillarga maqsadli mo‘ljallari 1-ilovaga muvofiq, 2022-yil uchun shahar mahalliy budjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2022-yil uchun shahar budjetidan budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2022-yil uchun shahar budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha shahar mahalliy budjeti taqsimotini o‘rnatilgan tartibda shahar bo‘yicha G‘aznachilik bo‘linmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. 2022-yil uchun shahar mahalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlarining prognozi 5-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2022-yil uchun viloyat budjetidan shahar mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini shahar mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’i nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul

qilinsin.

8. 2022-yil uchun shahar mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 1 mlrd. 395,7 mln so‘m miqdorida belgilansin.

Shahar budjetining 2022-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Termiz shahar byudjetining ijro etishda yuqori turuvchi byudjetdan ularga ajratiladigan byudjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli byudjeti zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmaydi.

9. 2022-yil uchun shahar budjeti shaxsiy g‘azna hisob varaqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 993 mln. 960 ming so‘m 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2022-yilda quyidagi soliq turlari:

a) shahar va tumanlar budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan qat’iy belgilangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

Mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol mahsulotlari, tamaki mahsulotlari aksiz solig‘i, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2021-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq taqsimlansin.

Davlat mulkini foydalanishga (ijaraga) berishdagi tushumlar

b) viloyatning viloyat mahalliy budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

foyda solig‘i (O‘zbekitson Respubilkasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yhatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidenlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari).

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

boshqa tushumlar.

v) viloyat budjeti hamda shahar va tumanlar budjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i hamda tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklarasiyaga asosan to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘zi yurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

davlat aktivlarini sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar;

(har bir soliq turi bo‘yicha ajratmalar normativi ko‘rsatiladi)

11. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari G‘.Elamanov, Moliya bo‘limi (A.Safarqulov), shahar Davlat soliq inspeksiyasi (M.Xudoyberdiyev) shahar mahalliy budjeti mablag‘lari hisobidan mablag‘ bilan ta’minlanadigan budjet tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjet prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12. Shahar davlat soliq inspeksiyasi (M.Xudoyberdiyev) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

Xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

13. Shahar davlat soliq inspeksiyasi (M.Xudoyberdiyev), Kadastr agentligi shahar filiali boshlig‘i (Sh.To‘rayev) 2022-yildan boshlab yuridik shaslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, shaharda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda, ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

14. Majburiy ijro byurosi Surxondaryo viloyati Termiz shahar bo‘limi (O.Xolmo‘minov) shahar Davlat soliq inspeksiyasi (M.Xudoyberdiyev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

15. Mahalla va oilani qo‘llab quvvatlash bo‘limi (Z.Meyliyev) shahardagi jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

16. Shahar Ichki ishlar bo‘limi (A.Normamatov), shahar Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (Sh.To‘xtayev), Davlat xizmatlari agentligi shahar bo‘limi boshlig‘i (N.Ashurov) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

17. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

mahalliy budjet xarajatning qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

18. Shahar hokimi:

Shahar budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, shahar xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, shahar hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan Hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas'ul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi

oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

19. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari G‘.Elamanov, xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyati, shahar hokimligi, tegishli tashkilotlar:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

20. Shahar hokimligi amaldagi qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

21. Mazkur qaror “Termiz oqshomi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

22. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

23. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (X.Fayzullayev) va shahar hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Xudayberdiyev I. B.**

Халқ депутатлари Термиз шаҳар
Кенгашининг
2022 йил 5 январдаги
VI-42-1-8-121-K/22-сон қарорига
1-илова

Termiz shahrining 2022-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognoz ko‘rsatkichlari hamda 2023-2024-yilga mo‘ljallari

№	Ko‘rsatkichlar	2022-yil uchun prognoz	2023-yil uchun mo‘ljal	2024-yil uchun mo‘ljal
1.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	112,0	113,8	110,4
2.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	101,3	100,8	100,9
3.	Xizmat kursatish sohasi o‘sish sur’ati, foizda	118,9	119,8	116,8
4.	Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati, foizda	110,1	111,2	110,8
5.	Qurilish ishlari hajmi o‘sish sur’ati, foizda	109,5	109,6	109,7

Халқ депутатлари Термиз шаҳар
Кенгашининг
2022 йил 5 январдаги
VI-42-1-8-121-K/22-сон қарорига
2-илова

2022-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/P	Daromad turlari	Jami
Jami		**139 517 647,0**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	
2	Yagona soliq to‘lovidan Davlat budjetiga ajratmalar	21 857 000,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	47 608 350,0
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	2 667 000,0
5	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	
6	Aksiz solig‘i, jami	13 554 800,0
	shu jumladan:	
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizasiyasidan soliq	*13 554 800,0*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	7 632 000,0
8	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 777 000,0
9	Yuridik shaxslar yer solig‘i	2 899 000,0
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	4 698 000,0
11	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	814 000,0
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	391 000,0
13	Davlat boji	
14	Jarimalar	
15	Ijara to‘lovi	510 000,0
16	Davlat mulkini xususiylashtirishdan (sotishdan) tushadigan tushumlar	1 087 200,0
17	Aksiz soligi (Arok, tabiiy vino va boshqa maxsulotlarga aksiz)	11 363 069,0
18	Aksiz soligi (Aloqa xizmati)	6 473 555,0
19	Aksiz soligi (Tamaki mahsulotalri)	12 185 673,0

Халқ депутатлари Термиз шаҳар
Кенгашининг
2022 йил 5 январдаги
VI-42-1-8-121-K/22-сон қарорига
3-илова

2022-yil uchun Termiz shahar budjetidan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan parlament ajratmalarining cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**148 048 096,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**148 048 096,0**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	**0,0**
	Tuman va shahar mahalliy budjetlariga transfertlar	
1.	**Xalq ta’limi**	**11 203 635,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	11 203 635,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
2.	**Maktabgacha ta’lim**	**7 061 755,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 061 755,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3.	**Sog‘liqni saqlash boshqarmasi**	**56 596 641,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	56 596 641,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
4.	**Madaniyat**	**851 682,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	851 682,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5.	**Jismoniy tarbiya va sport**	**2 277 912,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 277 912,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6.	**Veterinariya bo‘limi**	**483 710,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	483 710,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7.	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**23 496 895,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	23 496 895,0

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8.	**Davlat hokimiyat organlari**	**7 636 812,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 636 812,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9.	**Ijtimoiy moslashuv markazlari**	**93 000,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	93 000,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10.	**Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensasiyalar**	**24 248 585,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	24 248 585,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
11.	**Hokim yordamchilari**	**1 335 492,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 335 492,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12.	**Zaxira jamg‘armasi**	**1 395 725,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 395 725,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
13.	**Fuqorolar tashabbusi jamg‘armasi**	**7 079 912,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 079 912,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
14.	**Fuqorolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash tashabbusi jamg‘armasi**	**4 286 340,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 286 340,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

Халқ депутатлари Термиз шаҳар Кенгашининг
2022 йил 5 январдаги
VI-42-1-8-121-K/22-сон қарорига
4-илова

Soliqlar va yig‘imlardan shahar mahalliy budjetiga 2022-yil uchun ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/R	Shahar va tumanlar nomi	Aylanmadan soliq	Yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat’iy belgilangan miqdordagi daromad solig‘i (3 111 401)	Jismoniy shaxslarning yer solig‘i	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Benzin, dizel, siqilgan gaz, suyultirilgan gaz yoqilg‘isini yakuniy iste’molchilarga sotishdan aksiz solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Yuridik shaxslar yer solig‘i	Yig‘imlar	Davlat mulkini xususiylash-tirishdan (sotishdan) tushadigan tushumlar	Ijara to‘lovlari
1	Termiz shahri	100	100	100	100	15	50	40	100	100	50		20	100

Халқ депутатлари Термиз шаҳар
Кенгашининг
2022 йил 5 январдаги
VI-42-1-8-121-K/22-сон қарорига
5-илова

Termiz shahar mahalliy budjetlarining 2022-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	**Daromad**	**Xarajat**
JAMI	139 517 647,0	148 048 096,0
Termiz shahar	139 517 647,0	148 048 096,0

Халқ депутатлари Термиз шаҳар
Кенгашининг
2022 йил 5 январдаги
VI-42-1-8-121-K/22-сон қарорига
6-илова

Termiz shahar mahalliy budjetining 2022-yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

Shahar va tumanlar	**Tartibga soluvchi**
JAMI	**8 530 449,0**
shundan	
Termiz shahar	8 530 449,0

Халқ депутатлари Термиз шаҳар
Кенгашининг
2022 йил 5 январдаги
VI-42-1-8-121-K/22-сон қарорига
7-илова

Termiz shahar budjeti shaxsiy g‘azna hisob varaqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

ming so‘mda

T/r	**Ҳудуд номи**	**Miqdor**
	JAMI	**993 960,0**
	shundan	
1	Termiz shahar	**993 960,0**

Халқ депутатлари Термиз шаҳар Кенгашининг
2022 йил 5 январдаги
VI-42-1-8-121-K/22-сон қарорига
8-илова

Termiz shahridagi mahalla fuqarolar yig‘inlari bo‘yicha yuridik va jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar

2022-yil

№	Mahalla fuqarolar yig‘inlari nomi	Yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi		Jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi	
		Koeffisent miqdori	Soliq summasi (1 gektar uchun, so‘mda)	Koeffisent miqdori	Soliq summasi (1 kv.m uchun, so‘mda)
1	“Bog‘zor” MFY	1,00	32 500 000,00	0,80	243,36
2	“Bog‘ishamol” MFY	1,00	32 500 000,00	0,80	243,36
3	“Gulira’no” MFY	1,00	32 500 000,00	0,80	243,36
4	“Guliston” MFY	1,00	32 500 000,00	0,70	212,94
5	“Mexrobod” MFY	1,00	32 500 000,00	0,80	243,36
6	“Tuproqqo‘rg‘on” MFY	1,00	32 500 000,00	0,80	243,36
7	“O‘zbekiston” MFY	1,00	32 500 000,00	0,80	243,36

8	“Chegara” MFY	0,90	29 250 000,00	0,70	212,94
9	“Manguzar” MFY	0,90	29 250 000,00	0,70	212,94
10	“Navro‘z” MFY	1,00	32 500 000,00	0,80	243,36
11	“Saxovat” MFY	0,90	29 250 000,00	0,80	243,36
12	“Temir yo‘lchi” MFY	0,90	29 250 000,00	0,70	212,94
13	“Turon” MFY	1,00	32 500 000,00	0,80	243,36
14	“Shodlik” MFY	0,80	26 000 000,00	0,80	243,36
15	“Tinchlik” MFY	0,90	29 250 000,00	0,80	243,36
16	“Baynalminal” MFY	1,00	32 500 000,00	0,80	243,36
17	“Shifokor” MFY	1,00	32 500 000,00	0,80	243,36
18	“Do‘stlik” MFY	1,00	32 500 000,00	0,80	243,36
19	“Abduraxmon-Jomiy” MFY	0,90	29 250 000,00	0,70	212,94
20	“Amu Soxillari” MFY	0,85	27 625 000,00	0,70	212,94
21	“Jo‘yjangal” MFY	0,80	26 000 000,00	0,70	212,94
22	“Majnuntol” MFY	0,85	27 625 000,00	0,70	212,94
23	“Ma’rifat” MFY	1,00	32 500 000,00	0,70	212,94
24	“Surxon soxili” MFY	0,80	26 000 000,00	0,70	212,94
25	“Nurli kelajak” MFY	1,00	32 500 000,00	0,80	243,36
26	“Eski shahar” MFY	0,90	29 250 000,00	0,70	212,94
27	“Pattakesar” MFY	0,80	26 000 000,00	0,70	212,94

28	“Bo‘ston” MFY	1,00	32 500 000,00	0,80	243,36
29	“Alpomish” MFY	1,00	32 500 000,00	0,80	243,36
30	“Yulduz” MFY	1,00	32 500 000,00	0,80	243,36
31	“Farxod” MFY	1,00	32 500 000,00	0,80	243,36
32	“Kokildor-ota” MFY	0,80	26 000 000,00	0,70	212,94
33	“Alisher-Navoiy” MFY	0,80	26 000 000,00	0,70	212,94
34	“Jayxun” MFY	1,00	32 500 000,00	0,80	243,36
35	“Kattabog‘” MFY	1,00	32 500 000,00	0,80	243,36
36	“Abdulla-Avloniy” MFY	1,00	32 500 000,00	0,80	243,36
37	“Namuna” MFY	0,80	26 000 000,00	0,70	212,94